XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 14-dekabr VII-2-018-12-0-K/24 Xorazm viloyati

Xorazm viloyati Gurlan tumani markazining tasdiqlangan bosh rejasiga qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishlab chiqilgan batafsil rejalashtirish loyihasini tasdiqlash haqida

2024-yil 30-aprelda “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 21 va 46-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-aprelda “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmoniga asosan “Nurhon Projekt” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Gurlan tumani markazining tasdiqlangan bosh rejasiga qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishlab chiqilgan batafsil rejalashtirish loyihasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Gurlan tumani markazining tasdiqlangan bosh rejasiga qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishlab chiqilgan batafsil rejalashtirish loyihasi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (M.Kalandarov), Gurlan tumani hokimi R.O‘razboyev tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

Gurlan tumani markazining tasdiqlangan bosh rejasiga qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishlab chiqilgan batafsil rejalashtirish loyihasini amalga oshirish kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin;

hududlardagi yerlardan maqsadsiz foydalanish va noqonuniy qurilishlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatish yo‘li bilan ulardan samarali foydalansin;

energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali muhandislik kommunikatsiya tuzilmasini (suv, elektr, gaz, issiqlik ta’minoti, telekommunikatsiya obyektlari, kanalizatsiya, irrigatsiya) qurish va rekonstruksiya qilish yo‘li bilan ushbu sohalarni modernizatsiya qilsin;

bosh rejani amalga oshirishda bosh reja talablariga qat’iy rioya qilinishi yuzasidan tizimli nazorat o‘rnatsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2024-yil 14-dekabrdagi
VII-2-018-12-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyat Gurlan tumani "Madadkor" maxallasida joylashgan xududni yakka tartibdagi turar-joy binolariga qayta ixtisoslashtirish bosh rejasi



Situatsion holati

Kelishildi:

Xorazm viloyati qurilish va uy-joy komunal xo'jaligi bosh boshqarmasi bosh arxitektori _____ F.Masharipov

Gurlan Tumani xokimi _____ U.Jumaniyazov

Gurlan Tumani xokimi o'rinbosari _____ B.To'liyev

Gurlan tumani qurilish va uy-joy komunal xo'jaligi bo'limi boshlig'i _____ T.Ibragimov

SEO va JSX Xorazm viloyati boshqarmasi Gurlan tumani bo'lim boshlig'i _____ N.Madaminova

Xorazm viloyati FVB Gurlan tumani bo'lim boshlig'i _____ S.Urunbayev

MFY raisi _____ I. Nazarboev

Bosh reja qaydnomasi

№	Nomi	Umumiy maydoni m²	Qurilish osti m²	Soni	Eslatma
1	Loyihadagi bino	41 114.5 m²	13 814 m²	158 ta	Loyihadagi
2	Loyihadagi avtoturargoh		-	-	Loyihadagi
3	Loyihadagi bolalar maydonchasi		-	2	Loyihadagi
4	Chiqindilar uchun mahsus inshoat		-	1	Loyihadagi
5	Yong'inga qarshi (gidrant)		-	2	Loyihadagi
6	Kelgusida qurilishi rejalashtirilayotgan 2-qavatli 1-qavati savdo shaxobchalari va 2-qavati oilaviy MTM binosi		-	-	Kelgusida
7	Xususiy klinika va dorixona hamda savdo shaxobchalari		-	-	Mavjud
8	Mavjud turar-joylar		-	-	Mavjud

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

№	Nomi	O'cham m²	miqdori	%
1	Umumiy maydoni	m²	41 114.5 m²	100%
2	Qurlish osti	m²	13 814 m²	
3	Qamrab olish maydoni	m²		
4	Ko'kalamzor maydoni	m²		

Изм.	Кол.	Лист	№док.	Подпись	Дата
Нарежтир		Nurbanov.A			
ГИП		Ro'zimboyev.B			
Разраб.		Ro'zimboyev.B			

Договор №

М.

Xorazm viloyat Gurlan tumani "Madadkor" maxallasida joylashgan xududni yakka tartibdagi turar-joy binolariga qayta ixtisoslashtirish bosh rejasi

Заказчик: "GURLAN TUMAN HOKIMLIGI"

Стадия	Лист	Листов
PП	AC-1.	AC-1.

Bosh reja M 1:1000

" NURHON PROJECT" MCHJ
Гурлан 2024